

## ERKIN VOHIDOV IJODINING O‘ZIGA XOS QIRRALARI

Jo‘rayev Shukrullo, JDPI o‘qituvchisi

XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti rivojida Erkin Vohidovning munosib o‘rni bor. Mustabid tuzum sharoitida u o‘zining haq so‘zi bilan el orasida e‘tibor qozondi. Yozuvchi o‘z she‘riy asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. Ehtimol, uning she‘rlarida yuzaki o‘rinlar bordir, ammo adib hech qachon yolg‘on gap aytmagan, mustabid, mafkura, siyosat nog‘orasiga o‘ynab vijdonini sotmagan, murosasozlik yo‘liga kirmagan. U o‘tkinchi mayllarga berilmay, so‘z san‘atining azaliy muammosi – shaxs jumbog‘i, ijtimoiy adolat tuyg‘usi ifodasi bilan qiziqdi.

Muallif qo‘lidagi qalam go‘yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so‘zlar musiqa singari quyilib keladi uning she‘rlari yakka so‘zda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, ko‘p ovozli simfoniyani eslatadi, publisistik maqolalarini o‘qiganda inson ko‘ngil xazinasining, tuyg‘ularining xilma-xil jilolari mujassam, oddiy maishiy kechinmalardan tortib ulkan ijtimoiy mushohadalar, qabohatlar haqida qalam tebratganda ham ajib samimiyat, hazin va nurli bir kuy aks-sado berib turadi.

XX asrning 60-yillari oxiriga kelib Erkin Vohidov yetakchiligidagi adabiy avlod asta-sekin inson shaxsi, uning tuyg‘ulari tasviriga e‘tibor qarata boshladi. Insonning ruhiy kechinmalari poetik tasvir obyektiga aylandi.

Erkin Vohidov 1968 yilda aruzda bitgan “O‘zbekim” qasidasidayoq milliy g‘ururni uyg‘otish, ulus ahlida milliy ruhni mustahkamlash niyatini poetik voqelikka aylantirgan edi. Ma‘lumki, o‘z vaqtida aytilgan badiiy so‘z qudratli kuchga ega. “O‘zbekim” o‘z vaqtida maydonga tashlangan mardona poetik chorlov bo‘lgandi. Millatning fikrlash va yashash tarzidan tortib, to‘yu marakalariga qadar begona yo‘riqqa tushib borayotgan bir vaqtda bu she‘r o‘zbekdagi o‘zbeklikni saqlab qolishda beqiyos amaliy ahamiyat kasb etdi. “O‘zbekim” millatni chinakamiga uyg‘otdi, unda g‘urur, iftixor tuyg‘ularini paydo qildi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘.Hoshimov shunday degan edi “Haqiqiy ijodkor o‘z xalqining fidoyi va sodiq farzandi bo‘ladi. Bu hamma zamonlarga, hamma xalqlarga xos udum. Erkin Vohidovning talay asarlari bunga misol bo‘la oladi. Birgina „O‘zbekim“ni oling! O‘z vaqtida shoirning boshiga ko‘p savdolar solgan, “peshonasini g‘urra qilgan“ bu qasidani o‘zbekning gimni deyish mumkin. Ammo bu oddiy madhiya, faxriya emas. Hajmi kichik asarda xalqimizning ming yillik tarixi, quvonch va iztiroblari g‘oyat tabiiy, g‘oyat teran aks etgan. Bir maktabga borganimda butun sinf bolalari “O‘zbekim“ni boshidan oxirigacha jo‘r bo‘lib yoddan o‘qiganini ko‘rganman va xalqimizning shunday shoiri borligidan faxrlanganman”<sup>1</sup> deya ta‘kidlaganligini alohida aytib o‘tishimiz maqsadga muvofiq

Darhaqiqat o‘zbek adabiyotida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan adib o‘z ijodiy faoliyati davomida ko‘rsatib bergan desak adashmagan bo‘lamiz. Shu sababli ham adib 1983-yilda Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati, 1987-yilda O‘zbekiston xalq shoiri, 1997-yilda “Buyuk xizmatlari uchun”, 1999-yilda “O‘zbekiston Qahramoni” ordenlari bilan taqdirlangan.

---

<sup>1</sup> Ximik ochiq insiklopediya 1991.y yozuvchi bilan suhbat

Adib chindanda salmoqli ijod qilganligi kitobxonlar tomonidan uning xalq orasida mashhur bo'lgan "Kamtarlik", "O'zbekim", "Nido", "Inson o'zing", "Do'st bilan obod uying" she'rlarining kitobxonlar hamda barcha adabiyot havasmandlari, so'z san'ati shaydolari, o'zbek xalqi hayotida katta ma'naviy tarbiya vazifasini o'taganligini ko'rishimiz mumkin.

Erkin Vohidov ijod cho'qqisiga chiqish bilan birga insoniylik cho'qqisini ham zabt etgan inson ekanligini ko'p shoiru, yozuvchilarimiz o'z xotiralarida ko'p bor ta'kidlab o'tishgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qalbida vataniga bo'lgan muhabbat cheksiz bo'lgan, insonning farovon hayotini har narsadan ustun ko'radigan, shuningdek, muhabbat borasida dengizday qaysar, ummondek cheksiz, tog'lardek ulug'vor bo'lgan insonni o'z umrining qahramoni deyish mumkin. Erkin Vohidov ham shunday insonlardan edi desak yanglishmagan bo'lamiz. Mustaqillikka erishib o'zligini, o'zbekini yaratayotgan xalqimiz esa bunday insonlarni ulug'lashi tabiiy va mantiqiy holdir. Erkin Vohidovning hayot yo'li, yaratgan asarlari va ulardagi yetakchi g'oyalar har bir inson qalbida ezgu fikrlarga yondosh tarzda yashashiga ishonamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "ERKIN VOHIDOVNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI" Guliston. 2020 yil
2. Karimov A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: Sharq. 1997 yil
3. Rasulov A. Ardoqli adib.O'tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. – T., "Sharq", 2001
4. Ximik ochiq insiklopediya 1991.y yozuvchi bilan suhbat